

Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi
 Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
m.f.ibrohimova@buxdu.uz
<https://orcid.org/0000-0003-0520-622X>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya. Bu maqolada boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi haqida fikrlar mavjud. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun ularda tassavvurlar, xususan vizual tasvirlar, mantiqiy savollar va topshiriqning vizual tarzda berilishi orqali tushuncha hosil qilish o'quvchilarda fikrlashni, tasavvur hosil qilish tezligini oshishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, mantiqiy topshiriq, fikrlash, fikrlash jarayoni, mantiqiy fikrlash.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Abstract. There is information about the method of developing logical thinking based on the article in research classes. In order to develop logical thinking in elementary grades, external creation through imagination, visual images, logical questions and the visual appearance of the task serves the process of creating thinking and imagination in students.

Key words: worldview, logical task, thinking, thinking process, logical thinking.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. На исследовательских занятиях имеется информация о методе развития логического мышления на основе статьи. В целях развития логического мышления в младших классах процессу формирования мышления и воображения учащихся служит внешнее творчество посредством воображения, зрительных образов, логических вопросов и наглядной постановки задачи.

Ключевые слова: мировоззрение, логическая задача, мышление, мыслительный процесс, логическое мышление.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va zamonaviy va raqamli texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi oshirish, uning sifatililigi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xildagi zamonaviy o'quv mashg'ulotlari tashkil etish, ularni muntazam olib borish va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishiga yaqindan yordam berishdir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, o'qitishning raqamli va texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Raqamli texnologiyalar dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanishga

bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab: -darsning maqsadi; - maqsadga erishish yo'llari; - o'quv materiallarini taqdim etish usullari; - o'qitish metodlari; - o'quv topshiriqlarining turlari; - muhokamalar uchun savollar; - munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari; - o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi

Boshlang'ich sinflarda raqamli texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonida hamda ta'limdan tashqarida qo'llash imkoniyatlari juda ham yuqori. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda o'quvchilarda kompyuter savodxonligi yuqori bo'lishi bilan bir qatorda, ularda qator yutuqlar hamda kamchiliklar ham mavjud. Raqamli texnologiyalardan qanday qilib dars jarayonida unumli foydalanishg mumkin?

Dastlab o'qituvchi dars davomida taqdimotlar, televizor yoki kompyuter, electron doskalar yordamida dars davomida turli maqsadlarda ushbu texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz:

-o'tilgan mavzuni so'rash, takrorlab olish maqsadida. Bunda, o'tilgan mavzu yusasidan turli savollar, metodikalar yordamida mavzu takrorlab olinadi. Bunda o'qituvchi vaqtdan yutadi. Chunki savollar va topshiriqlar tayyor holda bo'ladi. Sinfdagi barcha o'quvchilarda savol va topshiriqlar birdek beriladi. Barcha o'quvchilar diqqatini berilgan topshiriqqa qaratadi va barchaning o'tilgan mavzuga tayyorlanish uchun bir xil vaqti, bir xil imkoniyati bo'ladi. Bunda o'qituvchi doskada keltirilgan savol va topshiriqlar uchun alohida vaqt sarflamaydi. Qiziqarli tarqatma materiallar orqali o'quvchilarga savollar tarqatilganda, o'quvchi individual, faqatgina o'zi bu savolga javob beradi, bu usulda esa sinfdagi barcha birdek tayyorlanadi.

Yangi mavzu bilan ishlash jarayonida ham raqamli qurilmalardan foydalanishning qator imkoniyatlari mavjud. Bunda o'qituvchi dars loyihasini oldindan o'zi tayyorlab qo'yadi va kerakli o'rinlarda undan foydalanadi. O'quvchilar dars loyihasi bilan tanishtirilganda bugunki darsda nimalar bo'lishini, qanday texnologiyalar, metodlardan foydalanishni oldindan biladilar va unga psixologik tayyorlanib oladilar. Bu esa o'quvchining faolligini oshirishga, bilimga chanqoqlikni oshirishga yanada yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'yinlar asosida ta'lim jarayonida qo'llash, o'quvchilar mantiqiy tafakkurini kengaytirish uchun ayniqsa muhim. Chunki ko'plab rivojlangan davlatlarda, xususan, Singapur, Rossiya, Aqsh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda o'quvchilar barcha texnologiyalar bilan jihozlangan, yangicha ta'lim berish sharoitlari bilan ta'minlangan xonalarda, zamonaviy texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari orqali ta'lim oladilar. Bu davlatlarning Xalqaro baholash dasturi PISA, PIRLS, TIMS kabilardan yuqori natijalar qayd etishi hech kimga sir emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar tuzish orqali va bunda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonini takomillashtirish haqida fikr yuritamiz.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda, o'qituvchi uning mazmuniga ko'ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Foydalanish imkoniyati yuqori bo'lgan raqamli texnologiyalar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

-raqamli va analog signallar asosida yaratilgan multimediyali, vizual materiallarni qo'llash orqali o'quvchilarda fanlarga qiziqish faollasha boradi va o'quvchilarda fanlarga qiziqish yuqori o'ringa chiqadi;

-bu o'rinda ta'limning interfaolliigi tufayli o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati faollashadi va o'quv materialini chuqur anglab o'zlashtirish samaradorligi oshadi;

-real holatlarda namoyish qilinishi qiyin yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish orqali gavdalantirish bilan o'quvchilarda yanada mustahkam tasavvur uyg'otish imkoniyati paydo bo'ladi;

-o'quv materiallarini o'zlashtirishda ma'lumotlarni mantiqan qabul qilish samaradorligi darajasiga ko'ra ham samarali bo'lib hisoblanadi;

-masofadan turib ta'lim olishda faqatgina internet orqali ta'lim olish emas balki, sababsiz yoki sababli tarzda dars qoldiruvchi o'quvchilar uchun dars tashkil qilishda katta imkoniyat yaratadi;

-o'quvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali, mustaqil ma'lumot qidirish, o'rganish, turli masalarni yechimini o'rganish imkonini beradi;

-o'quvchilarda yangi mavzuni o'rganishda yangi bilimlar qidirish, turli axborotlarni topish va o'rganish, va ularni incho va bayonlarda aks ettirish imkonini mavjud bo'ladi;

Mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlarni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

-mantiqiy bog'lanishga asoslangan topshiriqlar;

-tezkor –qiziqarli savollarga asoslangan topshiriqlar;

Mantiqiy bog'lanishga asoslangan mantiqiy topshiriqlar o'quvchilardan mantiqni topib keyin javobni topishga qaratilgan bo'ladi. Bunday topshiriqlarga "ortiqchasini top", "Farqini top", so'z o'yini", Masalan quyidagi topshiriq bunga misol bo'ladi:

1-topshiriq. Quyidagi buyumlar orqali kataklarda yashiringan kasb nomini toping.

--	--	--	--	--	--



Bu topshiriq 1-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, ular dastlab tank va harbiylar qalpog'ini ko'rishadi va bu buyumlar harbiyga tegishli ekanligini aniqlashadi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan savollarga asoslangan mantiqiy topshiriqlar o'quvchidan mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Bu topshiriqlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1. Rustam kurash to'garagiga qatnab respublikada oltin medal oldi. Bahrom ham kurash to'garagiga qatnashadi. Demak, barcha kurash to'garagiga qatnashuvchi bolalar pahlavondirlar.

A) To'g'ri

B) Noto'g'ri

2. Anvar matematikani o'qishni yaxshi ko'radi. Akbar esa buni teskarisi. Barcha Anvar ismli bolalar matematikani yaxshi ko'rishadi.

A) Tog'ri

B) Notog'ri

3. Fillarning ko'zlari bittadir. Barcha quyonlar ham fillardir. Demak quyonlarning ham ko'zlari bitta.

A) To'g'ri

B) Notog'ri

4. Ikki turga kiruvchi buyumlar bir-biriga umuman o'xshamaydi. Eshik va deraza mutlaqo bir xil ko'rinishda. Demak, eshik va deraza hech qachon ikkita turga kirmaydi.

A) To'g'ri

B) Noto'g'ri

5. Ingliz tili kursiga 50 yoshdan kattalar qabul qilinmaydi. Anvarning bobosi 52 yoshda.

A) Anvar ingliz tili kursiga qatnasha oladi.

B) *Anvarning bobosi ingliz tili kursiga qatnasha olmaydi.

C) Anvarning bobosi ingliz tili kursiga qatnasha oladi.

D) Anvar ingliz tili kursiga qatnasha olmaydi.

6. O'qish to'garagiga qatnashadiga yigit bolalarning 5 tasi yaxshi o'qiy olmaydi va shu to'garakka qatnashadigan 3 ta qiz ham yaxshi o'qiy olmaydi.

A) O'qish to'garagiga qatnashadigan bolalar yaxshi o'qiy olmaydi.

B) O'qish to'garagiga qatnashadigan yaxshi o'qimaydigan o'g'il bolalar qiz bolardan ko'p.

C) O'qish to'garagiga qatnashadigan yaxshi o'qimaydigan o'g'il bolalar yaxshi o'qimaydigan qiz bolardan ko'p.

D) O'qish to'garagiga qatnashadigan yaxshi o'qimaydigan qiz bolalar yaxshi o'qimaydigan bolalardan kam.

Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni, e'tiborlilikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. O'quvchida mantiqiy fikrlashni shakllantirish orqali uning umumiy bilim olish darajasi yuksalishi, kelajakda ilg'or fikrlovchi yetuk kadr bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 8.

2. Ibrohimova M. BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARINI O'QITISHDA "DAY GAME" DAN FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3. 3.

3. Ibrohimova M. F. IMPROVING INTEGRATION IN TEACHING ARITHMETIC PRACTICES IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 31.

4. Jonpulatovna S. M., Qizi I. M. F. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 5. Ibrohimova M. Boshlangich matematika darslarida arifmetik amallarni qo'llashda talim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

6. Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi. Problems That Arise In the Classroom in the Educator and Their Optimal Solutions . European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612

7. Ibrohimova, M. (2023). USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN ELEMENTARY GRADES. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(17), 129-133.

8. Ibrohimova M. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK VA JADVAL KORINISHIDAGI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – T. 28. – №. 28.

9. Ibrohimova Mohichehra, F. Q. (2022). Development of Logical Thinking in Elementary Mathematics Classes. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development*, 6(6), 1446-1450.